

O'RTA OSIYO KISHILIK MADANIYATINING MARKAZI SIFATIDA

Davronov Ziyot Davronovich.

F.f.d., professor.

Salimov Baxriddin Lutfullaevich.

TDTr.U dotsenti.

Toshqulova Zebo Umidjon qizi.

TDTr.U talabasi.

Annotatsiya: *O'rta Osiyo kishilik madaniyatining eng qadimgi markazlaridan biridir. Ota-bobolarimiz o'z madaniyati taraqqiyotida faol ishtirok etganlar. Qadim paytlardayoq ilm-fan, arxitektura, tasviriy san'at, musiqa, haykaltaroshlik va boshqa falsafiy, ma'naviy, madaniy yodgorliklarni qoldirganlar.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, madaniyat, falsafiy, ma'naviy, madaniy yodgorliklar, tafakkur.*

Abstract: *It is one of the oldest centers of personal culture in Central Asia. Our ancestors took an active part in the development of their culture. In ancient times, science, architecture, fine arts, music, sculpture and other philosophical, spiritual and cultural monuments were left behind.*

Key words: *Central Asia, culture, philosophical, spiritual, cultural monuments, thought.*

O'rta Osiyo kishilik madaniyatining eng qadimgi markazlaridan biridir. Ota-bobolarimiz o'z madaniyati taraqqiyotida faol ishtirok etganlar. Qadim paytlardayoq ilm-fan, arxitektura, tasviriy san'at, musiqa, haykaltaroshlik va boshqa falsafiy, ma'naviy, madaniy yodgorliklarni qoldirganlar. Lekin, ko'pgina bosqinchilik urushlari tufayli ular inqirozga yuz tutgan. Ammo, shu narsa aniqki, ajodolarimiz, yozuvlar, badiiy og'zaki ijodiyot, afsonalar orqali o'zlarining orzu-istiklarini, yorug'lik va qorong'ulik, zolimlik vaadolat sohalarini madh etganlar. Tabiat va jamiyat sohasidagi hodisalarini, ziddiyatli qarashlarini samimiyl holda tushuntirganlar. Ularning Vatanparvarlik, bahodirlik xislatlari, qo'shiq va she'rler orqali bizgacha yetib kelgan. Xalqning ahvoli, mehnati va rohati, shodligi va qayg'usi, yil fasllari hamda tabiat to'g'risidagi lavhalar turli janrlarda tasvirlangan. Maqol va falsafiy so'zlar ezgu niyatlarni targ'ib qilgan. Bularning barchasi o'zbek xalqining ota-bobolari dunyo tarixiga ulkan hissa qo'shganlaridan dalolat beradi. Bular bizning falsafiy merosimizdir.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda bu o'lkada skiflar, massaget deb atalgan xalqlar istiqomat qilganlar. Ularning o'z madaniyati, falsafasi, turmushi, o'zlariga xos rivojlanish manbalari bo'lgan. O'zlarining dunyoqarashi, urf- odatlari asosida hayot kechirganlar. Demak, o'zlarining tarixiy sharoitlaridan kelib chiqib falsafiy jarayonlarni ham shakllantirganlar. Bular O'rta Osyoning iqtisodiy-ijtimoiy sharoitiga bog'liq bo'lgan. Daryolardan sug'orish ishlarida foydalanish, hunarmandchilikni rivojlantirish, mahsulot ayriboshlash va boshqalar takomillashtirilgan. Bular o'sha davrning madaniyatiga, ma'naviyatiga ta'sir etmay qolmagan. Tarixchi Istarxiy Amudaryoni Xorazm taraqqiyoti bilan bog'laydi. O'rta Osyoning qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdogarchilik taraqqiy etishi shaharlarning paydo bo'lishida turtki bo'lgan. Natijada shahar madaniyati, ma'naviyati davr talabidan kelib chiqib o'zgarib borgan. O'rta Osiyo mintaqasi o'sha paytlarda ham iqtisodiy-geografik va iqlim nuqtai-nazaridan olsak, falsafa rivoji uchun qulay bo'lganligini o'sha davrda yozib qoldirilgan manbalardan bilish mumkin.

Qadimda O'rta Osiyo hududida-Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg'ona) va boshqa joylar yashash nuqtai - nazaridan muhim hisoblangan. Shu sababli, bu hududlarda XX asrda ko'plab tekshirishlar olib borildi. Jumladan, Xorazmda rus arxeologi S.P.Tolstov, quyi

Zarafshon vohasida akademik Ya. /ulomov tomonidan olib borilgan izlanishlar ko'pgina fikrlarni shakllanishiga yordam beradi. Ular turli davrlarga mansub bo'lgan juda qadimiy shaharlar, qo'rg'onlar, maqbaralar, sug'orish inshootlari, turli xil istehkomlarni ochganlar. Tuproq qal'a, Ko'zali qir, Yonbosh qal'a, Chust, Dalvarzin, Qizil qir, Varaxsha (Buxoro), Oqtepa (Toshkent) kabi joylarda topilgan turli buyum va qoldiqlar o'sha davrning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda doimiy ashyo bo'la oladi. Yoki antik dunyo tarixchilari Klement Aleksandriyskiy, Ksenofont, Strabon, Ptolemy, Gerodot asarlarida o'tmishdagi xalqlarning falsafiy qadriyatlari nimalardan iboratligi aks ettirilganki, ular hozirgi vaqtida asosiy ilmiy manbalar bo'lib hisoblanadi. Qadimgi davrlardayoq O'rta Osiyoda aholining konlarda ishlaganligi, mis va temir eritish, ularдан turli xil buyumlar, harbiy va boshqa mehnat qurollari yasash hamda kemasozlik, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik bilan shug'ullanganliklari va savdo-sotiq ishlari olib borganliklari ma'lum. O'sha davrlardayoq Farg'ona vodiysida aholi neftdan foydalanib ish yuritgan. Buyuk tarixchi Gerodot ajdodlarimiz massagetlar to'g'risida shunday fikrni bildirgan: "Ular otliq va piyoda jang qiladilar, bu ikki xil jang usulini biladilar; ular o'q-yoy, nayza va dudama, kalta qilich bilan qurollanganlar. Bu qurollarni ular jezdan yasaydilar, bosh kiyimlari, kamarlari va bog'ichlarini oltin bilan bezaydilar. Otlarning ko'krak qalqonini jezdan yasaydilar. Yugan, suvluq va boshqa ot jabduqlariga ham oltin qadaydilar. Temir bilan

kumushni ular mutlaqo ishlatmaydilar, chunki ularning mamlakatida oltin bilan mis nihoyatda ko‘p bo‘lib, temir bilan kumush mutlaqo yo‘qdir¹. Ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimiz turmush tarzi o‘scha davr talabidan kelib chiqib shakllangan. O‘rtal Osiyo xalqlari antik dunyo davridayoq boshqa o‘lkalar, qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro hamkorlik sohalarini yaxshi yo‘lga qo‘yanlar. Bu esa falsafaning yuksalishiga, hamda baynalmilallahiga olib kelgan.

Ajdodlarimizning Ural, Sibir, Volga bo‘yi, Xitoy, Hindiston, Gresiya, Eron, Suriya, Mesopotamiya, Vavilon, Misr mamlakatlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarini o‘rnatganligi, o‘zlarining turmush tarzini o‘zgarishiga, falsafasini yuksaltirishga olib kelgan. Shu ma’noda O‘rtal Osiyo /arb va Sharqni bog‘lashda markaz bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. Ayniqsa, Volga bo‘ylari, Uraloldi, Janubiy Sibir, Qozog‘iston, Eron, Hindiston mamlakatlarining falsafiy qarashlarini ba’zi tomonlarini bizning ma’naviyatimiz va madaniyatimizga yaqinroq ekanligini sezish qiyin emas. Eramizgacha bo‘lgan birinchi ming yillikdan oldin ham O‘rtal Osiyo bilan Xitoy o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar vujudga kelganki, bu avvalo, Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘langan. Xulosa qilish mumkinki, o‘scha davrlardayoq O‘rtal Osiyo muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblangan. Yuksak madaniyat va falsafaning rivojlanishi uchun zamin hisoblangan.

Tariximizdan ma’lumki, O‘rtal Osiyo qadimgi davrda Xitoydan, Xitoy esa O‘rtal Osiyodan ko‘p narsalarni o‘zaro o‘rganganlar. Aynan Xitoy xalqi paxtachilik, tokchilik, vinochilik, shisha quyish ishlarini O‘rtal Osiyodan o‘rgangan bo‘lsa, O‘rtal Osiyo xalqlari esa Xitoydan ipakchilik, qog‘oz ishlash, chinni buyumlar yasash kabilarni o‘rganganlar. Bunday o‘zaro munosabatlarni tarixiy yilnomalardan bilib olish mumkin. Xitoy yilnomalarining birida shunday fikrlar mavjud: "Yue-chji (Xitoy) viloyatlarining poytaxtida savdo qilgan (O‘rtal Osiyo) aholisi, biz toshni eritib, undan har xil rangli shisha yasashni bilamiz deb aytdilar va tog‘lardan, konlardan ruda keltirib, poytaxtda ulardan shisha quyish ustida tajriba o‘tkazdilar; tajriba muvaffaqiyatlari chiqdi. Ularning shishasi shu qadar yaltiroq ediki, bu jihatdan u hatto /arbiy mamlakatlarnikidan (Rim yoki Suriya shishasi ko‘zda tutilsa kerak) ustun chiqdi. Shuning uchun ham podsho ularning shishalaridan taxt turadigan zallarda yoki saroylarda foydalanishni buyurdi; shishalar yaltiroq rangda bo‘lib, juda tiniq edi; ularga qarab hamma taajjubga tushar va bu shishalarni ilohiy deb hisoblar edi".

Shubhasiz, o‘scha davrdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar xalq mahalliy falsafa ijodiyotiga ham ta’sir etmay qolmagan. Qadimgi davr xalq og‘zaki va yozma

¹ Ўаёёёаъа́ І. І. ғҶаъаे аёааеаेа ое оаоёе. О., 1976 йил, 29-аъо.

ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ham o'sha davrdan qolgan yodgorliklar asosida bilish mumkin.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaeivich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaeivich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.